


**BUXORO XALQARO
UNIVERSITETI**



**ILMIY
AXBOROTNOMASI**

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 2, 2026



<https://bxu.uz>



ISSN 3030-3710 (P)

ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC BULLETIN OF BUKHARA INTERNATIONAL UNIVERSITY

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО

УНИВЕРСИТЕТА

научно-практический журнал

№ 02-son, 2026

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti

Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy

<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.

+998905124244 Ostanov Sh.Sh.

<https://t.me/OstanovSH>

Mundarija /Содержание/Contents

Bet	Muallif va maqola nomi
9	Искаков Мухаммад Сабирович Образы экзотических животных в русской и узбекской Паремииологии
13	Kodirova Nilufar Abdusattor qizi Ustanovka tushunchasi psixologik kategoriya sifatida
17	Mavlonov Anvar Uktamovich Raqamli media va ommaviy axborot vositalari: jamiyatga ta'siri va turlari
21	Ahmadjonova Nilufaroy Ijtimoiy tarmoq matnlari orqali zamonaviy til normalarini o'rganish usullari
26	Aliyeva Lola Xomidovna Abdulla Oripov she'riyatida gap turlarining qo'llanishi
30	Zaripov Otabek Murodullayevich Shaxsning o'z salomatligiga munosabat namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari
35	Anorova Zuhra Shomurot qizi Ingliz tilidagi brend nomlarining semantik motivatsiyasi va konseptual asoslari
40	Qalandarova Gulqand Mamurovna Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak psixologlarning o'rni va psixolog mutaxassislarni tayyorlashning nazariy asoslari
44	Murodov Ulug'bek O'tkir o'g'li Sun'iy intellektga asoslangan ta'limda talaba va o'qituvchilarning pedagogik munosabatlari hamda axloqiy qadriyatlar
50	Saidkodiroya Dilfuzakhon Development and functions of internet terminology: abbreviation and nomination
55	Razzokova Moxinur Baxodir qizi Fizika ta'limida konseptual xatolarni aniqlash va bartaraf etishning pedagogik mexanizmlari (Physics: A Conceptual World View darsligi tahlili asosida)
60	Keldiyorova Nasiba Ilhom qizi O'smirlar xulq-atvorida koping-strategiyalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
66	Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi Ikki tillilikda til o'zgarishi va til barqarorligi: avlodlararo til uzilishining lingvistik mexanizmlari
70	Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna Ko'chib yuruvchi syujet va badiiy talqin modifikatsiyasi
75	Mirzaabdullayeva MahliyoXon Xosiljon qizi Qo'shma fe'llarda konnotatsiya hodisasi: o'zbek, ingliz va rus tillari qiyosida
78	Soliyev Otabek Davlatjon o'g'li Axborot muhitida shaxs ongiga ijtimoiy-psixologik ta'sir va psixologik barqarorlik masalalari
83	Toshtemirov Farhod Shodiyevich Komilova Mushtariy Laziz qizi Noverbal kommunikatsiya va uning zamonaviy muloqotdagi ahamiyati
87	Axmatova Zilola Egamkulovna Emotsional intellektni o'lchash metodikalarini moslashtirish: msceit va bar-on EQ-I psixometrik tahlili
93	Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna Pedagogik texnologiyalar orqali talabalarda axborot tahdidlariga qarshi barqarorlikni shakllantirish
100	Мейлиева Мохидил Одил кизи Язык сми и использование заимствованной лексики

105	Zaynobiddinov Jaloliddin Identiklikning psixologik va ijtimoiy-dinamik omillari
109	Xalikova Umida Mirovna Talabalarning ilmiy-tadqiqotga yo'naltirishning didaktik omillari va bosqichlari
115	Qayumova Dilobar, Anvarova Umida "Symbolism in Abdulla Qodiriy's Mehrobdan chayon"
119	Xo'jaxonova Mushtariybonu Orif qizi Comparative-approach-based methods for developing students' professional lexicon
124	Муминова Л.Р. Оценка качества образования детей , включённых, в инклюзивное образование в Республике Узбекистан
129	Ermetov Erkinbay Yaxshivayevich Tibbiyotda axborot texnologiyalari fanni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi
137	Ernazarova Maxliyoxon Kobiljonovna 5-6 sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish va tasviriy nutqini shakllantirishning amaliy usullari
142	Karshiyeva Dilafr'o'z Suyunovna Kasbiy stressning pedagog shaxsining oilaviy munosabatlari va kasbiy samaradorligiga ta'siri
146	Qurbonov Parda Axmedovich J.G. Byronning "manfred" poemasining kognitiv talqini: sun'iy intellekt va inson tarjimoni idrokidagi farqlar
151	Hafizova Muattar Olimjon qizi Talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va pedagogik shart-sharoitlari
156	Mullabaeva Nozima Maxmudjanovna, Agzamova Yelena Yurevna, Karamyan Marietta Xachaturovna, Raximmirzaev Sanjar Boturovich, Abdullaev Bobur Askarovich, Fayzullaev Anvar Zayniddinovich Korrupsion xulq-atvorga moyillikni tadqiq etishga ilmiy yondashuvlar tahlili
165	Murodova Nilufar Anvar O'smirlik davrida suitsidal xulq xavfining yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillar
171	Qayumova Dilobar, Ochilova Muxlisabonu Cho'lpon's enduring legacy in uzbek literature
175	Qobilova Nilufar Xudoyshekurovna Bo'lajak o'qituvchilarning loyihaviy ta'lim sharoitida kongruentlik qobiliyatini rivojlantirish: fasilitatorlik yondashuvi.
181	Abdumurodova Feruza Nuriddin qizi Ota ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni psixologik tahlil qilish
186	Raxmatova Madina Sobirovna The significance of using the suggestopedia method when instructing young language learner
192	Yusupova Nargis Ochilovna Ingliz va o'zbek tillarida antonimlarning semantik tasnifi: qiyosiy tahlil
197	Nazarov Azamat Sottarovich Rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida konformizm xavfi: guruh bosimi mexanizmlari va tashkilot faoliyatiga ta'siri
201	G'ayibova Nargiza Anorbayevna Kognitiv-bixevioral psixoterapiyada oilaviy maslahatni tashkil etish
205	Kasimova Zebo Yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini va diniy psixologik immunitetini shakllantirish

212	Isakova Mu'azam To'lqinovna Sportchilarda motivasiya va ruhiy salomatlik: affiliasiya motivi va muvaffaqiyatga erishish motivasiyasining psixologik tahlili
216	Муминова Лола Рахимовна Логопедическая помощь детям с нарушениями речи: актуальные проблемы и повышение её эффективности в узбекистане
220	Rasulova Feruza Fayzullayevna Oiladagi nosog'lom psixologik muhitning shaxs rivojlanishiga ijtimoiy-psixologik ta'siri
224	Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich Talabalarda metarefleksiv salohiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillari
229	Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna Ruhiy salomatlik mohiyati va uning Imom G'azzoliy asarlarida yoritilganligi
234	Xujaniyozova Oygul Rajabovna Kreativlikni aniqlashga oid psixologik-pedagogik yondashuvlar
238	Mamadaliyeva Zulfizar Yusufjon qizi Zamonaviy axborot makonidagi gibril urushlar
244	Maxkamova Komila Toktamuratovna The significance of chiasmus as a stylistic device
250	Parpiyeva Shahnoza Abdullaevna Xulqi og'ishgan o'smirlar ijtimoiylashuviga psixologik himoya mexanizmlarining ta'siri

Nazarov Azamat Sottarovich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrası dotsenti

RAHBARNING BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH JARAYONIDA KONFORMIZM XAVFI: GURUH BOSIMI MEKANIZMLARI VA TASHKILOT FAOLIYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida guruh bosimi va konformizm fenomenining ijtimoiy-psixologik mohiyati kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir etuvchi guruhviy mexanizmlar - normativ va informatsion ta'sir, ijtimoiy kutilmalar, guruhdagi maqom va rollar, jamoaviy birxil fikrga intilish (groupthink) holatlari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, konformizm xavfining rahbar tomonidan alternativ variantlarni baholash, tanqidiy fikrlash, mas'uliyatni anglash va strategik tanlovni amalga oshirish jarayonlariga ta'siri ochib beriladi. Maqolada guruh bosimining ikki tomonlama xususiyati asoslanib, uning muayyan sharoitlarda qaror qabul qilish samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda, ayrim holatlarda qaror sifati pasayishi, innovatsion faollik susayishi, psixologik xavfsizlik kamayishi, ishonch muhiti zaiflashishi va tashkilot faoliyatida funksional muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lishi ko'rsatib o'tiladi. Xulosa qismida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida konformizm xavfini kamaytirishga xizmat qiluvchi amaliy-profilaktik yondashuvlar, jumladan, alternativ tahlil mexanizmlarini joriy etish, "tanqidiy muhokama" madaniyatini shakllantirish, "advokat-tanqidchi" rolini tashkil etish, anonim ekspert baholash usullaridan foydalanish hamda rahbarning psixologik avtonomiyasi va refleksiv kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: guruh bosimi; konformizm; boshqaruv qarori; guruh dinamikasi; liderlik; tashkilot kommunikatsiyasi; guruhviy fikrlash; javobgarlik.

РИСК КОНФОРМИЗМА В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ РУКОВОДИТЕЛЕМ: МЕХАНИЗМЫ ГРУППОВОГО ДАВЛЕНИЯ И ВЛИЯНИЕ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье проводится комплексный социально-психологический анализ феномена группового давления и конформизма в процессе принятия управленческих решений руководителем. В исследовании на теоретико-научной основе раскрываются групповые механизмы, влияющие на принятие решений, включая нормативное и информационное воздействие, социальные ожидания, статусно-ролевую структуру группы, а также тенденцию к коллективному единомыслию (groupthink). Кроме того, рассматривается влияние риска конформизма на оценку руководителем альтернативных вариантов, критическое мышление, осознание ответственности и реализацию стратегического выбора. В статье обосновывается двусторонний характер группового давления, демонстрируется, что в определённых условиях оно может повышать эффективность принятия решений, однако в ряде случаев приводит к снижению качества решения, ослаблению инновационной активности, уменьшению психологической безопасности, снижению уровня доверия и возникновению функциональных проблем в деятельности организации. В заключительной части представлены практико-профилактические подходы к снижению риска конформизма в процессе принятия управленческих решений, включая внедрение механизмов альтернативного анализа, формирование культуры «критического обсуждения», организацию роли «адвоката-критика», использование методов анонимной экспертной оценки, а также рекомендации по развитию психологической автономии и рефлексивной компетентности руководителя.

Ключевые слова: групповое давление; конформизм; управленческое решение; групповая динамика; лидерство; организационная коммуникация; групповое мышление; ответственность.

THE RISK OF CONFORMITY IN LEADERS' MANAGERIAL DECISION-MAKING: MECHANISMS OF GROUP PRESSURE AND ITS IMPACT ON ORGANIZATIONAL PERFORMANCE

Abstract. *This article provides a comprehensive socio-psychological analysis of group pressure and the phenomenon of conformity in the process of managerial decision-making by a leader. The study theoretically examines key group mechanisms influencing decision-making, including normative and informational influence, social expectations, the group's status-role structure, and the tendency toward collective uniformity of thought (groupthink). In addition, the paper explores how the risk of conformity affects a leader's evaluation of alternative options, critical thinking, awareness of responsibility, and implementation of strategic choices. The article substantiates the dual nature of group pressure, demonstrating that under certain conditions it may enhance decision-making effectiveness, while in other cases it leads to reduced decision quality, weakened innovative activity, decreased psychological safety, diminished trust, and the emergence of functional problems within the organization. The concluding section proposes practical and preventive approaches to reducing conformity risk in managerial decision-making, including the introduction of alternative analysis mechanisms, the development of a "critical discussion" culture, the establishment of a "devil's advocate" role, the use of anonymous expert assessment methods, and recommendations for strengthening the leader's psychological autonomy and reflexive competence.*

Key words: group pressure; conformity; managerial decision; group dynamics; leadership; organizational communication; groupthink; responsibility.

Kirish. Bugungi kunda tashkilotlarning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyati ko'p jihatdan rahbarning samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ularni ilmiy-amaliy jihatdan asoslash hamda ijro mexanizmini to'g'ri yo'lga qo'ya olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ayniqsa, globallashtirish, raqamli transformatsiya, tezkor ijtimoiy o'zgarishlar, axborot oqimining keskin ortgani hamda qaror qabul qilish jarayonida noaniqlik va risk omillari kuchaygan bir sharoitda rahbarning boshqaruv tanlovi faqat individual intellektual resurslar bilan emas, balki guruhli muhit ta'siri orqali ham shakllanishi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy-psixologiya nazariyalari nuqtai nazaridan rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni jamoa fikri, tashkilot ichidagi me'yoriy kutilmalar, rahbar atrofidagi yaqin boshqaruv guruhining pozitsiyasi va norasmiy ta'sir kanallari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu ma'noda, guruh bosimi va konformizm fenomeni rahbarning voqelikni idrok etishi, vaziyatni baholashi, alternativ variantlarni tanlashi va qarorning mas'uliyatini anglash jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ayrim hollarda qarorning ratsionalligi va strategik adekvatligini pasaytiruvchi xavf omillaridan biriga aylanishi mumkin. Mazkur holat "konformizm xavfi" tushunchasini boshqaruv psixologiyasi kontekstida chuqur ilmiy asosda o'rganish zaruratini yanada oshiradi.

Amaliyotda qaror qabul qilish ko'pincha jamoaviy muhokama, boshqaruv kengashlari, ishchi guruhlar yoki maslahat organlari doirasida amalga oshiriladi. Biroq aynan shu jarayonlarda o'zaro kelishuvga majburlovchi psixologik mexanizmlar, "yagona pozitsiya"ga intilish, tanqidiy fikr bildirishdan tiyilish, alternativ fikrlarni chetga surish kabi holatlar paydo bo'lishi mumkin. Natijada rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida deviant qarorlar, strategik xatolar, resurslarni noto'g'ri taqsimlash, ishonch muhitining susayishi va tashkilot samaradorligining pasayishiga olib keluvchi omillar kuchayadi.

Shuningdek, mazkur muammoning dolzarbligi rahbar qaror qabul qilish jarayonida normativ va informatsion ta'sir, "gruppovoy konformizm", "gruppovoy myslitel'nyy sindrom" (groupthink) kabi ilmiy kategoriyalarning zamonaviy boshqaruv tizimlarida qanday namoyon bo'lishi, ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini va profilaktik mexanizmlarini aniqlash bilan ham belgilanadi. Chunki konformizm xavfi nafaqat qaror sifatini pasaytiradi, balki tashkilotdagi innovatsion muhit, xodimlar faolligi, psixologik xavfsizlik, ijtimoiy ishonch va mas'uliyat madaniyati kabi muhim ko'rsatkichlarga ham bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Demak, rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida guruh bosimi va konformizmning psixologik mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini asoslash va profilaktika yo'llarini ishlab chiqish zamonaviy boshqaruv psixologiyasi uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'sir va konformlikni guruh dinamikasining bazaviy kategoriyalari sifatida o'rganish rahbar qarorlari psixologiyasini tushunishda fundamental ahamiyatga ega. S. Ashning klassik eksperimental tadqiqotlari bir ovozdan (yunodush) ko'pchilik fikri mavjud bo'lgan holatda individ hatto ochiq-oydin to'g'ri javob bor paytda ham o'z bahosini o'zgartirishga moyil bo'lishini ko'rsatgan [1]. Shuningdek, I. Djanis tomonidan ishlab chiqilgan "guruhiy fikrlash" konsepsiyasi birdam va yopiq guruhlarda bir ovozlikka intilish alternativ va risklarni real baholashdan ustun qo'yilishi orqali salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushuntiradi [2]. Demak, rahbar qarorlarida guruh bosimi va konformizm mexanizmlarini tahlil qilish boshqaruv psixologiyasidagi dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Ijtimoiy-psixologik yondashuvlarda guruh bosimi guruhning individga nisbatan ochiq yoki yashirin ta'sirlari majmuasi sifatida talqin qilinadi; mazkur ta'sirning maqsadi - xulq-atvor, fikr va qarorlarni ko'pchilik pozitsiyasiga moslashtirishdir. Bu yerda konformlikni bir xil reaksiya sifatida emas, balki turli darajalarda namoyon bo'luvchi hodisa sifatida ko'rish maqsadga muvofiq; tashqi (public) kelishuv - inson guruh bilan ochiqcha rozi bo'ladi, biroq ichki ishonchini saqlab qoladi; va ichki qabul qilish - guruh normasi interiorizatsiya qilinib, shaxsiy qarash qayta quriladi [4]. Mazkur farq konform ta'sirning chuqurligini diagnostikalash va qaror barqarorligini prognoz qilish imkonini beradi.

Ilmiy bahslarda "konformizm - nokonformizm" oppozitsiyasi har doim ham tushuntiruvchi qudratga ega emasligi ta'kidlanadi, chunki mukammal psixologik mezon sifatida shaxsiy o'zini-o'zi belgilash (lichnostnoe samoopredelenie) tushunchasi asosli hisoblanadi [3]. Ushbu yondashuvga ko'ra, sub'ekt guruh me'yorlarini inkor etmasdan turib, mustaqil baholash va mas'uliyatli tanlovni saqlab qolishi lozim. Boshqaruv amaliyoti uchun bu, bir tomondan, jamoa fikrini hisobga olish, ikkinchi tomondan esa tanqidiy tahlil va dalillarga tayanishni muvozanatlash zarurligini anglatadi.

Boshqaruv qarorlarida guruh bosimi ta'sirini tushuntirishda rahbarning shaxsiy xususiyatlari ham muhim o'rin tutadi. A. Nazarov ishlarida rahbar shaxsiyatining qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi psixologik jihatlari, ishbilarmon xulq-atvor va o'z-o'zini boshqarish (samoregulyatsiya) mexanizmining ahamiyati alohida ko'rsatiladi [5; 6]. Bu esa guruh ta'siri, odatda, mustaqil kognitiv baholash va kritik fikrlash mexanizmlari yetarlicha faol bo'lmagan sharoitlarda kuchayishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Guruh bosimining asosiy mexanizmlarini normativ va axborot (informatsion) ta'sir sifatida ajratish mumkin. Normativ ta'sir guruh tomonidan ma'qullanish, maqomni saqlash va sanksiyalardan qochishga yo'naltirilgan bo'ladi. Boshqaruv jamoalarida bu "birdamlikni buzmaslik", "ko'pchilikka qarshi chiqmaslik", "loyiq ko'rinish" kabi ichki motivatsiyalarda ifodalanadi. Ierarxiya qattiq bo'lgan tashkilotlarda va "noqulay fikr" uchun psixologik jazo kuchli bo'lgan muhitda normativ bosim muhokamani dalillar maydonidan loyallik demonstratsiyasi maydoniga aylantirishi mumkin. Ayniqsa tezkor qaror talab etilgan, rahbardan "qat'iylik" kutiladigan vaziyatlarda bunday ta'sir sezilarli ortib, tanlov sifatini pasaytirish xavfini kuchaytiradi.

Axborot ta'siri esa ko'pchilik fikrini kompetentlik mezoni sifatida qabul qilishga asoslanadi: "ko'pchilik shunday desa, demak shu to'g'ri". Noaniqlik va ma'lumot yetishmasligi sharoitida bu mexanizm sub'ektiv xavotirni kamaytiradi, kognitiv sarfni tejaydi, ammo strategik kompleks vazifalarda kollektiv xatolar ehtimolini oshiradi. Ash eksperimentida ko'pchilikning bir ovozdan fikri individ bahosini o'zgartirishga kuchli turtki bo'lishi ko'rsatilgan [1]. Real boshqaruv muhitida, qaror parametrlari ko'p o'lchamli bo'lgan holatlarda, axborot ta'siri yanada kuchli oqibatlarga ega bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Konformizmning tizimli ko'rinishi sifatida "guruhiy fikrlash" (groupthink) fenomeni katta amaliy ahamiyatga ega. I. Djanis konsepsiyasiga ko'ra, jips va yopiq guruhlarda bir ovozlikka intilish alternativ variantlarni real baholash, risklarni tanqidiy tahlil qilish va ma'lumotni tekshirishdan ustun keladi [2]. Guruhiy fikrlash ehtimoli, odatda, quyidagi shartlarda ortadi: guruhning yuqori

birdamligi va tashqi ta'sirlardan izolyatsiyalanishi; liderning yuqori avtoriteti va "qo'llab-quvvatlash majburiyati"; tashqi ekspertizaning yetishmasligi; tanqidiy muhokama protseduralarining yo'qligi; stress va vaqt bosimi. Natijada shubhalar marginallasadi, alternativlar "noqulay" deb chiqarib tashlanadi, muhokama esa avvaldan qabul qilingan qarorni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Guruh bosimining boshqaruv qarorlari sifatiga ta'siri bir nechta ijtimoiy-psixologik oqibatlar orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, tanqidiy fikrlash pasayadi va alternativlar spektri torayib boradi: qaror "eng ko'p qo'llab-quvvatlangan" prinsipiga ko'ra shakllanib, "eng asosli" variant soyaga ketadi. Ikkinchidan, qayta aloqa buziladi va "sukut effekti" paydo bo'ladi: qarshi fikr bildirish xavfli deb qabul qilingan muhitda xodimlar risklar haqida gapirishdan tiyiladi, rahbar esa "qulay" axborotni oladi. Uchinchidan, javobgarlik diffuziyasi kuchayadi: "jamo'a hammasini ma'qulladi" degan psixologik sxema personal mas'uliyatni pasaytiradi va riskli qarorlarni qabul qilishni yengillashtiradi.

Ushbu xulosalar boshqaruv qarorlarining psixologik samaradorligi shaxsiy yetuklik, ongli tanlov, ishbilarmon xulq-atvor va rahbarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati bilan bog'liq ekanini haqidagi ilmiy natijalar bilan uyg'un [5; 6]. Shu ma'noda guruh fenomenlarini inkor etish yoki e'tibordan chetda qoldirish strategik xatolar va reputatsion yo'qotishlar xavfini oshiradi, ayniqsa noaniqlik va qaror "narxi" yuqori bo'lgan vaziyatlarda.

Konformizm profilaktikasi guruh faolligini cheklash emas, balki dalil-asosli va psixologik jihatdan xavfsiz muhokama madaniyatini shakllantirishni talab qiladi. Eng samarali choralarga quyidagilar kiradi: muhokamani reglamentlash (alternativlar generatsiyasi, risk tahlili, ma'lumotni tekshirish va yakuniy kelishuv bosqichlarini ajratish); "shayton advokati" roli orqali tanqidiy ekspertiza; ekspert baholarni anonimlashtirish va avvaldan ovoz berish usullari; tashqi mutaxassislarni jalb qilish; psixologik xavfsizlik muhitini rivojlantirish; rahbar avtonomligini va mustaqil baholash qobiliyatini kuchaytirish [3; 5; 6]. Ushbu choralar qaror qabul qilishda kognitiv xatarlarni kamaytirib, tashkilotning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Guruh bosimi va konformizm rahbar faoliyatida tabiiy ijtimoiy-psixologik fenomenlar bo'lib, ayrim holatlarda jamoa muvofiqlashuvi va qaror ijrosini ta'minlaydigan funksional resurs vazifasini bajaradi. Biroq bir ovozlikka ortiqcha intilish ustuvor bo'lgan sharoitlarda ushbu fenomenlar qaror sifati pasayishiga, alternativ fikrlash cheklanishiga, qayta aloqaning buzilishiga va javobgarlikning "suyulishi"ga olib keladi. Klassik ijtimoiy ta'sir tadqiqotlari [1] hamda guruhiy fikrlash konsepsiyasi [2] konformizm xatarlari jips, yopiq va stress sharoitida faoliyat yurituvchi boshqaruv guruhlarida ayniqsa yuqori ekanini ko'rsatadi.

Shuning uchun boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish tizimli profilaktik yondashuvlarni talab qiladi: muhokama jarayonlarini me'yorlashtirish, psixologik xavfsizlikni kuchaytirish, tanqidiy ekspertiza va alternativ tahlil mexanizmlarini joriy etish, shuningdek rahbarning shaxsiy avtonomligi va o'z-o'zini boshqarish salohiyatini rivojlantirish. Bunday kompleks yondashuv boshqaruv psixologiyasining ilmiy-amaliy qiymatini oshirib, tashkilotlarning noaniqlik sharoitida barqaror qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Asch S. E. Effects of group pressure upon the modification and distortion of judgments // Groups, Leadership and Men. Pittsburgh: Carnegie Press, 1951.
2. Janis I. L. Victims of Groupthink: A Psychological Study of Foreign-Policy Decisions and Fiascoes. Boston: Houghton Mifflin, 1972.
3. Ильин В. А., Кондратьев М. Ю. Групповое давление и групповое влияние: конформизм, неконформизм, личностное самоопределение // Социальная психология и общество. 2012. № 1.
4. Шлыкова М. А. Феномен группового давления в социальной психологии группы // Экономика и социум. 2014. № 2–4 (11). С. 1252–1256.
5. Назаров А. Психологические особенности руководителей, влияющие на принятие управленческих решений // Молодой ученый. 2019. № 44 (282). С. 298–300.